

FAN TO'GARAKLARINING MAQSADI, VAZIFASI VA IMKONIYATLARI

Choriyeva Zuhra Tojimurot qizi

A.Qodiriy nomidagi JDPI, Texnologik ta'lim yo'nalishi talabasi,

Jizzax, O'zbekiston

e-mail: choriyevazuhra98@gmail.com

Ilmiy rahbar: Q.X.Alqorov

Annotatsiya: *Har qanday mamlakatning shon - shuhrati va kuch – qudratini, bilimli, ijodkor kishilari, yangi texnika texnologiyalari salohiyati va yuksak madaniyati belgilaydi.*

Kalit so'z: *suveren, yuksalish, shahdi baland, xavf-xatar, texnologiya, quvvat, imkoniyat.*

Аннотация: *Слава и могущество любой страны определяется ее знаниями, творческими людьми, потенциалом новых технологий и высокой культурой.*

Ключевые слова: *суверенитет, вознесение, вознесение, опасность, технология, сила, возможность.*

Annotation: *The glory and power of any country is determined by its knowledge, creative people, potential of new technologies and high culture.*

Keywords: *sovereignty, ascension, ascension, danger, technology, strength, opportunity.*

Ilm – fan, davlatchilik, ma'naviyat va boshqa sohalarda boy o'tmishga ega bo'lgan o'zbek xalqi XX asr oxiri va XXI asr boshlarida o'zining mustaqil, suveren yuksalish davrini boshladi. Bu yuksalish esa barcha sohalarda va xususan ta'lim tizimida birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning “Har qanday mamlakatning shon - shuhrati va kuch – qudratini, bilimli, ijodkor kishilari, yangi texnika texnologiyalari salohiyati va yuksak madaniyati belgilaydi” degan da'vatini shior qilib olgan holda yosh avlodni maqsadli ravishda ijodkorlik ruhida tarbiyalashni taqozo etadi. Yoshlarni ijodkorlik ruhida tarbiyalashning bosh bo'g'ini hisoblangan fan to'garaklarining maqsadi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

-xalqimizning “Bilagi zo'r birni yiqar – bilimi zo'r mingni” hikmati asosida yoshlarni hamisha “qaynash”, “shahdi baland” bo'lish ruhida tarbiyalash orqali ularda har doim tengdoshlari orasida birinchilar qatorida bo'lish his-tuyg'ularini qaror toptirish;

-mustaqil respublikamizni gurkirab rivojlantirishda buyuk kelajagimiz vorislari bo'lgan yoshlarning o'qish yaratuvchanlik ishlariga mas'uliyat bilan ijodkorlik nuqtai nazaridan yondoshishlari uchun keng yo'l ochib berish;

-mamlakatimizda o'sib voyaga yetayotgan yosh kelajak avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, iqtidor va iste'dod sohibalari bo'lgan yoshlarga g'amxo'rlik ko'rsatish qo'llab – quvvatlash, ijod va bilim cho'qqilarini egallashlariga ko'mak berish, iste'dod va intellektual salohiyatlarini ro'yobga chiqarish, moddiy va ma'naviy jihatdan imkoniyat darajasida sharoitlar yaratish;

-har xil fan to'garaklarida ijod qilayotgan va o'z qobiliyatlarini namoyon etayotgan yoshlarni rag'batlantirish, ularning ilg'or g'oyalarini yuqori darajasiga ko'tarish, yangi iqtidor qirralarini ochish, yoshlar orasida sog'lom raqobat muhitini vujudga keltirish;

-yoshlarning ijodkorlik shaxsiy sifat va ruhiy xususiyatlarini takomillashtirish uchun ma'lum tartibga tushirilgan uzviy va kishini har doim olg'a yetaklovchi muhit yaratishlarni nazarda tutadi.

Yuqorida qo'yilgan maqsadlarga mos holda ularga erishish esa quyidagi ijtimoiy va pedagogik vazifalarni real va ijobiy hal qilishni taqozo etadi:

Ijtimoiy vazifasi:

- o'quvchi va talabalarning alohida fanlar bo'yicha olgan nazariy bilimlarini ilm - fan va ishlab chiqarishning yuqori darajasini ta'minlashga, mahsulot sifatini oshirishga, uning tannarxini kamaytirishga, mehnat unumdorligini oshirishga, xavf - xatarsiz texnika va texnologiyalar yaratishga, atrof – muhitni muhofaza qilishga, va boshqa ijodkorlik yo'nalishi mazmun mohiyatida boy ijtimoiy - iqtisodiy merosimizni tiklash, qadriyat va ma'naviyatimizni yanada kengroq o'rgatish hamda targ'ib qilishga qaratilgan ilg'or ilmiy asoslangan g'oya hamda takliflarni ishlab chiqishga ko'maklashish va joriy etishga safarbar etish;

- uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha o'quvchi va talabalarning olgan bilimlarini mamlakatimizni ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy, ma'rifiy rivojlantirish faoliyatiga keng miqyosda tortish orqali bo'lajak mutahasislarning kasbiy tayyorgarligi samaradorligini oshirish;

- fanlar sirlarini egallashga chin dildan o'zini baxshida etgan yoshlarni qo'llab – quvvatlash bilan ularning umumli ijodkorlik faoliyati va bu sohadagi imkoniyatlarini yanada to'la – to'kis namoyon qilishlari uchun sharoit yaratib berishlarni o'z ichiga oladi.

Pedagogik vazifasi:

- o'quv jarayonida har bir fan bo'yicha bilimli, faol va ijodkor yoshlarni bir maslakdosh kichik guruh (klub) ga birlashtirish orqali ularning aqliy -nazariy, amaliy – ijodkorlik salohiyatlarini tanlagan mutaxassisligi va oxir -oqibatda vatan istiqboli sari yo'naltirish;

- yoshlarni ijtimoiy hayotning barcha sohalarini bo'yicha mukammal bilimlarga ega bo'lgan faol kasbiy ijodkor, iqtidorli va nimaga qo'l ursa uddasidan chiqadigan mutaxassislar qilib tarbiyalash;

- respublikamiz aholisining qariyb 60 foizini tashkil etuvchi yoshlarga g'amxo'rlik ko'rsatish, ularning tashabbus va intilishlarini qo'llab – quvvatlash, ijod va ilm - fan cho'qqilarini egallashlariga ko'mak berish orqali faolligini, ijodkorlik borasidagi sayi – harakatlari aniqligini, amaliyligini, foydaliligini va oshkoraligini ta'minlash;

- yoshlarning ijodkorlik ishi mahsulidan foydalanish, yangiliklarni joriy qilish mexanizmini takomillashtirish orqali ularning ruhiyatini ko'tarish va loqaydlikka murosasizlik ruhida tarbiyalash.

Uzluksiz ta'lim tizimida 15 dan 25 yoshgacha bo'lgan yoshlarning ijodkorlik ishlari bo'yicha faolligini oshirish maqsad va vazifa qilib olgan fan to'garaklari quyidagi masalalarni ijobiy hal qilish uchun imkoniyatlar yaratadi:

- ilmiy va ijodkorlik tadqiqotlarda maqsadli ilmiy- ijodiy ishlar hamda izlanishlar bilan shug'ullanuvchi ijodkor yoshlar mavqeini ko'taradi va ularning safini kengaytiradi;

- uzluksiz ta'lim tizimida yoshlar faolligi va ijodkorligi rolini hamda ahamiyatini oshiradi;

- yoshlarning kasbiy mahorati, fan bo'yicha bilimli va ijodkorlik qobiliyatlarini rag'batlantiradi;

- barcha ilm maskanlarida o'quvchi va talabalar faolligida o'zaro halol rag'batli raqobat, ijodkorlik ishlari samaradorligini targ'ib etuvchi reklamani tashkil etadi;

- fanlar o'rtasida o'quvchi va talabalarning ilmiy ijodkorlik ishlarini sifat jihatdan yuqori darajaga ko'tara olgan kafedralar va uning to'garaklari faoliyatidagi ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtiradi;

- ta'lim tizimida yoshlar ilmiy - texnikaviy ijodkorligini rivojlantirishga ko'maklashuvchi faol mutaxassis, murabbiy va boshqa tashkilotchilarning faoliyat salohiyatini rag'batlantirish va bu borada yuksak iste'dod sohibalariga, ijodkorlikning tegishli sohalarida o'z safarbarligini namoyish etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.Nishonova “Komil inson tarbiyasi” Toshkent “Istiqlol” 2003 y
2. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. – T.: Fan, 2004.
3. Шарипов, Ш. С. (2017). Personality model of modern teacher. *Eastern European Scientific Journal–Germany*, 93-96.

4. Шарипова, Ш. С. (2018). Инновационные технологии в современном учебном процессе. *Молодой ученый*, (9), 185-188.
5. Шарипов, Ш. С. (2000). Педагогические условия формирования изобразительского творчества студентов (на примере факультетов Труда и профессионального образования).
6. Orishev, Jamshid (2021) "PROJECT FOR TRAINING PROFESSIONAL SKILLS FOR FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION," *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*: Vol. 2021 : Iss. 2 , Article 16.
7. Xolmatov, P., & Оришев, Ж. (2020). ДАРСДАН ТАШҚАРИ МАШҒУЛОТЛАРДА ЎҚУВЧИЛАР КАСБИЙ ТАРБИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ МАҚСАД ВА ВАЗИФАЛАРИ. *Физико-технологического образование*, 1(1)
8. Ismailov T.J, Tagaev X, Kholmatov P.K, Yusupov K.Y, Alkarov K.Kh, Orishev Zh.V Karimov O.O. (2020). Cognitive-Psychological Diagram Of Processes Of Scientific And Technical Creativity Of Students. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(08), 3669-3677.
9. Оришев, Ж. Б. (2019). ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИМКОНИАТЛАРИ. *Интернаука*, (43-2), 70-72
10. Тагаев, Х., Убайдуллаев, С., Алкаров, К. Х., & Оришев, Ж. Б. (2016). ПОВЫШЕНИЕ ПАТЕНТНЫХ ЗНАНИЙ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1776-1780)
11. Исмаилов, Т. Д., Тагаев, Х., Низамов, Ш. Ш., & Суюнов, У. Д. (2019). Педагогические основы совершенствования творческой личности студентов. *Поволжский педагогический поиск*, (2), 104-111.
12. Тагаев, Х., Алкаров, К. Х., Каримов, О. О., & Юлдашев, М. (2019). Педагогические основы обеспечения стабильности роста и развития системы научно-технического творчества студентов (Модель "Руководитель-Участник-Творческая деятельность"). *Поволжский педагогический поиск*, (2), 112-119.
13. Исмаилов, Т. Д., Тагаев, Х., Юсупов, К. Я., & Эргашев, Х. (2016). О МЕТОДИЧЕСКОЙ РАБОТЫ ПО ПОЛИТЕХНИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1678-1681).
14. Тагаев, Х., Алкаров, К. Х., Артикова, О. Ш., & Мамаджанова, К. А. (2016). ПАТЕНТ-КАК ЯДРО И СТРАТЕГИЧЕСКИЙ ШАГ ВПЕРЕД К НОВЫМ ВЫСОТАМ ТЕХНИЧЕСКОЙ И ИНЖЕНЕРНОЙ МЫСЛИ.

- In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1773-1776).
15. Исмоилов, Т. Д., Тагаев, Х., Низомов, Ш. Ш., & Юсупов, М. М. (2015). ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ УМЕНИЙ И НАВЫКОВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТРУДА. *Н-34 Научно-практические основы устойчивого ведения аграрного*, 217.
 16. Тагаев, Х., Оришев, Ж. Б., & Юсупов, М. М. (2015). ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РЕАЛИЗАЦИИ КОМПЕТЕНТНОГО ПОДХОДА В МУНИЦИПАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ НА ОСНОВЕ АПК В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ. In *ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ АРИДНЫХ ЭКОСИСТЕМ* (pp. 187-189).
 17. Тагаев, Х., & Эшанкулов, Х. М. (2015). РАЦИОНАЛЬНОЕ УПРАВЛЕНИЕ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ РАБОТОЙ СТУДЕНТОВ. In *INTERPERSONAL MECHANISMS OF KNOWLEDGE AND EXPERIENCE TRANSFER IN THE PROCESS OF PUBLIC RELATIONS DEVELOPMENT* (pp. 40-43).